


## X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2023- yil 1- dekabr holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 36 021 tani tashkil qildi. (2022- yil 1- dekabrga nisbatan 107,2 % ga ko'pdir).

### **Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2024- yil 1- yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**



■ Sanoat ■ Savdo ■ Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Qurilish ■ Boshqalar

Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo tarmog'ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 39,9 %), sanoat sohasida (18,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (27,3 %) va qurilishda (4,5 %) tashkil etilgan.


### **Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**

	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>5 542</b>	<b>4 636</b>
Namangan shahar	1 689	1 211
Mingbuloq	236	322
Kosonsoy	267	261
Namangan	344	242
Norin	335	247
Pop	324	312
To'raqo'rg'on	358	370

	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr
Uychi	353	283
Uchqo‘rg‘on	479	449
Chortoq	397	377
Chust	446	331
Yangiqo‘rg‘on	314	231

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo‘yicha eng ko‘p Namangan shahrida – 1211 ta, Uchqo‘rg‘on tumanida – 449 ta, Chortoq tumanida – 377 ta, To‘raqo‘rg‘on, tumanida – 370 ta, Chust tumani – 331 ta, Mingbuloq tumanida – 322 ta, Pop tumani – 312 ta, Uychi tumani – 283 ta, Kosonsoy, Namangan, Norin tumanlarida bu ko‘rsatkich o‘rtalari darajani tashkil etgan. Eng past ko‘rsatkich Yangiqo‘rg‘on tumanida 231 tani tashkil etdi.

#### 2023- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarining hududlar bo‘yicha ulushi, %da



2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarining jami miqdoridan eng ko‘p ulushi Namangan shahrida – 26,1 %, Uchqurg‘on tumanida – 9,7 %, Chortoq tumanida -8,1 %, To‘raqo‘rg‘on tumanida – 8,0 %, Chust tumani – 7,1 % Mingbuloq tumanida -6,9 %, Pop tumanida -6,7 %, Uychi tumanida – 6,1 % va tashkil etdi.


2023- yil yanvar- dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,8 % (2022- yil yanvar-dekabr oylarida 72,4 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

## *Namangan viloyatining 2023- yil yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati*

Kichik biznes subyektlari tomonidan 242,5 mln. AQSH dollarari (umumiy eksport hajmining 43,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 578,2 mln. AQSH dollarari (umumiy import hajmining 70,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

### **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi**

(2023- yil yanvar-dekabr oylari holatiga, % da)



### **Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi** (2023- yil yanvar-dekabr)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	30 920,8	94,2
Sanoat	9 831,0	47,2
Qurilish	6 845,1	91,7
Chakana savdo	19 564,8	94,7
Yuk tashish, mln. tonna	29,6	93,7
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	446,0	97,5

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi,  
(%)da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
<b>Viloyat bo‘yicha jami</b>	<b>47,2</b>	<b>91,7</b>	<b>66,4</b>	<b>66,7</b>
Namangan shahar	58,1	86,4	44,8	58,7
Mingbuloq	40,8	100,0	83,1	36,9
Kosonsoy	37,8	89,9	83,9	65,5
Namangan tuman	77,5	100,0	82,8	75,4
Norin	93,5	100,0	83,1	79,4
Pop	73,4	70,3	72,2	89,0
To‘raqo‘rg‘on	8,8	96,3	73,9	51,2
Uychi	65,5	91,2	82,2	81,1
Uchqo‘rg‘on	29,6	97,8	78,7	83,4
Chortoq	100,0	100,0	78,9	87,9
Chust	37,1	100,0	78,0	61,6
Yangiqo‘rg‘on	100,0	98,3	86,1	88,5

Hududlar bo‘yicha **Sanoat** sohasining yuqori ulushini Chortoq, va Yangiqo‘rg‘on tumanlari (100,0 %) hamda Norin (93,5 %) tumanlari tashkil etdi.

**Qurilishda** – Mingbuloq, Namangan, Norin, Chortoq, Chust tumanlari 100,0 % ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasida** – Yangiqo‘rg‘on (86,1 %), Kosonsoy (83,9 %), Mingbuloq (83,1 %), Norin (83,1 %), tumanlari tashkil etdi.

**Investitsiyada** – Pop (89,0 %) Chortoq (87,9 %), Yangiqo‘rg‘on (88,5 %), Uchqo‘rg‘on (83,4 %), Uychi (81,1 %), tumanlarida yuqori ulushlarni tashkil etdi.